

## **BOLALARDA UCHRAYDIGAN QIZAMIQ KASALLIGI.**

***Toshbo'lova Dilorom Bahtiyorovna***

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Pediatriya yo'nalishi 2-kurs klinik ordinatori*

***Doston Axmedov Rustam o'g'li***

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Pediatriya*

***Burxonov Javohir Bahodir o'g'li***

*SamDTU 2-son Pediatriya kafedrası 2-kurs klinik ordinatori Pediatriya*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Bolalar orasida uchraydigan keng tarqalgan kasalliklardan biri bo'lgan qizamiq kasalligi, yuqush yo'llari, kasallikni davolash hamda oldini olish yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qizamiq, bolalar kasalligi, virus, infeksiya, laringotraxeobronxit, immunitet, kasallik

Qizamiq – bu o'tkir yuqumli virusli kasallikdir. Qizamiq yer kurrasida eng keng tarqalgan infeksiya bo'lib, toshma toshadigan va jiddiy asoratlar qoldiradigan yuqumli kasalliklarning eng tez yuqadiganidir. Agar qizamiq bo'lmagan yoki emlanmagan kishi kasal odam bilan muomala qilsa, qizamiqning yuqish ehtimoli 100 foizga yaqinlashib qoladi. Qizamiqqa chalinish mumkin bo'lgan holat. Qizamiq 2,5 yashar bolalarga ham, kattalarga ham yuqadi. Biroq so'nggi yillarda bu kasallikning o'smirlar va kattalarda uchrashi keskin kuchaygan. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda onalaridan o'tgan tug'ma immunitet bo'ladi. Agar ona ilgari qizamiq bilan og'rigan bo'lsa va unda immunitet hosil bo'lgan bo'lsa, bola bir yoshga yetguncha, ayniqsa, ona sutini emayotgan bolalar ona immuniteti bilan himoyalangan bo'ladi. Bunday bolalar qizamiqni oson o'tkazadi va shundan so'ng ularda qizamiqqa qarshi mustahkam immunitet hosil bo'ladi. Qizamiq ko'pchilik hollarda dekabr-may oylari davomida uchraydi. Qizamiq havo-tomchi yo'li orqali yuqadi. Qizamiqning virusi tashqi muhitga bemor kishi aksa urganda, yo'talganda

va soʻzlashganda yuqori nafas yoʻllaridan soʻlak tomchilari bilan birga chiqadi. Qizamiq virusi tashqi muhitda ikki soat davomida saqlanishi mumkin, shuning uchun u ikki soat avval bemor kishi oʻtirgan xonaga kirgan sogʻlom odamga ham yuqib qolishi mumkin. Qizamiqqa chalingan kishi toshma toshishidan 2-4 kun oldin yuqumli va kasallik oʻtkir kechadigan davri davomida infeksiya manbai boʻlib qolaveradi. Inkubatsiya davri oʻrtacha ikki hafta davom etadi. Bu davr 7 kundan 28 kungacha davom etishi mumkin. Kasallikning 5-6 kuniga kelib, uning virusi ogʻiz-halqum boʻshligʻidan qonga oʻtadi va organizmning barcha organlari va toʻqimalariga tarqaladi. Qizamiq virusi koʻproq nafas olish tizimi, oshqozon va markaziy asab tizimi toʻqimalarini zararlaydi. Toshma. Toshma kasallikning uchinchi kunida paydo boʻladi va keyingi uch kun ichida butun tanaga tarqaladi, soʻng uch kun ichida biroz dogʻlar qoldirib, yoʻqolib ketadi. Qizamiqning asoratlari. Qizamiqning eng xavfli jihati – uning asoratlari. Uning asoratlari qatoriga laringit (halqumning oʻtkir yalligʻlanishi), laringotraxeobronxit (nafas yoʻllarining infeksiyasi), pnevmoniya (oʻpkaning yalligʻlanishi), otit (oʻrta quloqning yalligʻlanishi), tepki, bosh miyaning yalligʻlanishi (ensefalit), miokardit (yurak mushaklarining yalligʻlanishi) kiradi. Qadimda momolarimiz qizamik boʻlgan odamga qizil koʻylak kiydirishgan va bu davoning bir turi ekaniga ishonishgan. Bugungi kunda ham mazkur irim saqlanib qolgan. Ammo zamonaviy tibbiyotda kasallikdan faqat oʻz vaqtida emlatish orqali himoyalaniş mumkin, deb tavsiya qilinadi. Qizamiq bilan ogʻrigan bemorlarning qorongʻiroq xonada tinch yotishlarini taʼminlash zarur (konʻyunktivitda oʻtkir yorugʻlik kuchli ogʻriq beradi). Ogʻiz choy sodasining eritmasi bilan chayqab turiladi, asoratlarning oldini olish uchun koʻzlarga sulfasil va boshqa antibakterial tomchilar tomizib turiladi. Pnevmoniya yoki boshqa bakterial asoratlari rivojlangan taqdirda antibiotiklar qabul qilish tavsiya etiladi. Kasallikning oldini olish va davolash uchun katta dozalarda A vitaminidan foydalanish mumkin. Bugungi kunda qizamiqdan asorat qolmasligi va hatto oʻlim holatlari vujudga kelmasligi uchun koʻpgina mamlakatlarda qizamiqqa qarshi majburiy profilaktik emlashlar joriy qilingan. Emlashdan soʻng hatto kasallik yuqqan taqdirda ham u asoratsiz, yengil shaklda kechadi. Maʼlumot uchun, 1963 yilda qizamiq

vaksinasi ishlab chiqilgach, bu kasallik bilan og'riqan va vafot etganlar soni yuz martaga kamaygan. Etiologiyasi – qo'zg'atuvchisi - virus tashqi muhit ta'siriga chidamsiz, lekin past temperaturaga chidamli, antibiotiklar ta'sir etmaydi, interferon ta'sirida tez nobud bo'ladi. Infeksiya manbai bemor odam hisoblanadi. Sog'lom organizmiga virus nafas yo'llari orqali tushadi, ya'ni havo-tomchi bilan tarqaladi. Klinikasi - qizamiq kechishida davriylik yaqqol seziladi. Xastalik kechishi 4 davrga bo'linadi. Yashirin, prodromal davri, toshma toshishi va yo'qolish davrlari. Yashirin davri o'rta hisobda 9-11 kun, ba'zan 3-4 haftagacha boradi. Bu davrda qisqa muddatli harorat ko'tarilishi, tumov alomatlari, ishtaha yo'qolishi va serxarxashalik alomatlari bo'lishi mumkin. Prodroma davrida kasallikka xos alomatlar paydo bo'ladi. Tana harorati ko'tariladi, bola lanj bo'ladi, ko'p yig'laydi, ishtahasi yo'qoladi, uyquasi buziladi, burun bo'shlig'i, nafas yo'llari, ko'z va og'iz shilliq pardasida kataral yallig'lanishi ro'y beradi, g'uv-g'uv yo'tal paydo bo'ladi, ovoz bo'g'ilib qoladi. Ko'z konyuktivasi yallig'lanadi, qizaradi, tomirlari kengayadi, yosh oqib turadi, bemor yorug'likka qaray olmaydi. 1-2 kundan keyin ko'z va burundan oqayotgan suyuqlik yiring aralash bo'ladi. Bemorning yuz-ko'zi, burun va lablari kerikadi, prodromaning 2-3 kunida og'izda, lunj shilliq qavatida mayda rangli, nuqtasimon biroz bo'rtib turadigan toshmalar paydo bo'ladi. Ularning atrofi qizil gardish bilan qoplanadi. Og'izda toshmalar paydo bo'lgan muddatda qattiq tanglay, murtak bezlari va halqumning orqa devorida enantema paydo bo'ladi. Toshma toshish davri 3-4 kun davom etadi. Bu davrda bolaning ahvoli yanada yomonlashadi, isitma ko'tariladi, shu davrda qizamiqqa juda xos bo'lgan teri toshmalar paydo bo'ladi. Toshma avval quloq orqasi va burun ustida paydo bo'lib, 24 soat ichida bosh, bo'yin, yuz va ko'krakning yuqori qismiga o'tadi. Ertasiga toshma butun tanaga, 3-kuni qo'l va oyoqlarga tarqaladi. Toshma ostidagi teri rangi o'zgarmaydi. Toshma dastlab dog' shaklida bo'ladi. Keyin u biroz kattalashib, teri yuzasidan ko'tarilib turadi. Ba'zan toshmalar tutashib ketib, terining deyarli sog' joyi qolmaydi. Toshmalar lolarang bo'ladi, yaltirab turadi, ba'zan teri qichishadi. Toshmalar yo'qolishi davrida isitma tusha boshlaydi, bolaning ahvoli yaxshilana boradi, laterral alomatlar kamayib, yo'qoladi. Toshmalar qay tartibda toshgan

bo'lsa, shu tartibda yo'qoladi. Dastlab toshma qo'ng'ir tus oladi va qavariqi yo'qoladi. Bunday dog' 1,5-3 haftadan so'ng butunlay yo'qolib ketadi. Toshmalar yo'qolish davrida kepaksimon po'st tashlash kuzatiladi. Bunday po'stloqchalar ayniqsa yuz, bo'yin va tanadan ko'p to'kiladi. Kaft va tovonda hech qachon bo'lmaydi. O'pka shamollashi qizamiq kasalligida eng ko'p uchraydigan asoratlardan hisoblanadi. Profilaktikasi. Har bir bola 9 va 16 oyligida qizamiqqa qarshi vaktsina olishi lozim. Agar bemor aniqlansa, alohidalanadi, u bilan muloqatda bo'lganlar 17 kun tibbiy ko'rikda bo'ladilar, gammaglobulin olgan bolalar 21 kun kuzatuvda bo'ladilar, bog'chaga qabul qilinmaydilar. Emlanmagan bolalar gammaglobulin oladilar.

### **Xulosa:**

Kasallikning oldini olishda eng yaxshi vosita — profilaktik emlash hisoblanadi. Kasallikka yuzaki qarab, davo choralari ko'rilmasa, Zotiljam (o'pka yallig'lanishi), tomoqning shishi, o'rta quloqning yallig'lanishi (otit), ichak kasalliklari kabi asoratlar qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1. Ahmedov A.G. Odam anatomiyasi. Toshkent. O'zME Davlat ilmiy nashriyoti. 2005.[1]**
- 2. Ахмедов А.Г., Зиямуддинова Г.Х. Одам анатомия, физиология ва патологияси. Тошкент. 2010.[2]**
- 3. Ахмедов А.Г, Расулов Х.А. Атлас анатомии человека. Ташкент. 2011.[3]**
- 4. Синельников Р.О. Атлас анатомии человека. В 4-х томах—М.: 2007.[4]**
- 5. Frank H., Netter M.D. Atlas of Human Anatomy. N.York. 2003. [5]**
- 6. Воробьева Е.А. Анатомия и физиология. Москва. 1988.[6]**
- 7. Қодиров У.З. Одам физиологияси. Тошкент. 1996.[7]**